

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA INNOVACIYALAR  
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro'yxotga olindi

No 130. 24/1-18/2.05  
«18» 08 2024 yil



"TASDIQLAYMAN"  
Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti  
rektori O.A. Ataniyazova

«08» 02 2024 yil

2

GISTOLOGIYA, SITOLOGIYA, EMBRIOLOGIYA  
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	900000-	Sog'lijni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lism sohasi:	910 000 -	Sog'lijni saqlash
Ta'lism yo'nalishi:	60910100-	Stomatologiya

Nukus – 2024

Modul kodi GIS112308	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	Kreditlar 4	
Modul turi Majburiy	Ta'lim tili qoraqolpoq o'zbek / rus/ qoraqalpoq	Haftadagi dars soatlari 3		
1	Modulning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	60	60	120
<b>I Modulning mazmuni:</b>				
<p><b>Modulning maqsadi</b>— odam organizmi organ va to'qimalarining, xususan yuz-jag' va og'iz bo'shlig'i a'zolari va tishlarning embrional rivojlanishi, mikroskopik va submikroskopik tuzilishi, hujayralarning sito- va gistogramiologiyasining asosiy qonuniyatlarini o'rganish, histologik preparatlarni identifikasiya va interpretasiya qilish ko'nikmalarini egallash.</p> <p><b>Modulning vazifalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yuz -jag' va og'iz bo'shlig'i a'zolari va tishlarning taraqqiyoti, tuzilishi va faoliyati to'g'risida zamonaviy nazariy bilimlarni egallash;</li> <li>- mikroskopik va submikroskopik preparatlarni to'g'ri tahlil qilish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;</li> <li>- odam organizmi hujayralari, to'qimalari va a'zolarining embrional taraqqiyoti qonuniyatlarini o'zlashtirish;</li> <li>- hujayra, to'qima va a'zolarning yoshga nisbatan o'zgarishlari va ularning turli ta'sirlarga nisbatan javob reaktsialarini to'g'ri talqin qila bilish;</li> <li>- eng muhim sitologik, histologik va embriologik tadqiqot usullarining asoslarini o'zlashtirish.</li> </ul>				

## II Asosiy nazarliy qism Modul tarkibiga kuyidagi mavzular kiradi:

### 3- semestr

#### 1-mavzu. To'qimalar.

To'qimalar haqida tushuncha. To'qimalarining tarkibiy qismi: hujayralar va hujayralararo modda. Differonlar, to'qima regenerasiyasi, regenerasiya turlari. To'qimalar turlari: epitelial, ichki muhit, mushak va nerv to'qimalar. Epiteliy to'qimasining morfofunktional tavsifi, turlari, Ichki muhit yoki tayanch-trofik to'qimalar, morfofunktional tavsifi, tasnifi Qon tarkibi, genogramma, uning klinik mohiyati. Qonning shakllli elementlari. Gemogrammaning yosha qarab o'zgarishlari. Embrional gemostipoez. Tolali va maxsus xususiyati birkittiruvchi to'qimatar. Tog'ay va suyak to'qimalari. Asl birkittiruvchi to'qima, turlari. Siyrak tolali birkittiruvchi to'qima, mohiyati. Tog'ay to'qimasi: glialin, elastik, tolali tog'ayning tarkibiy qismi, taraqqiyoti, regenerasiyasi, yosha ko'ra o'zgarishlari. Suyak to'qimasi, turlari, hujayralari va hujayralararo moddalar.

Nerv to'qimasining taraqqiyoti va tavsifi. Neyronlar va Neyrogliya: gliostitlar. Nervlar, nerv oxirlari, sinapstar. Mushak to'qimasi tafsifi, tasnifi. Silliq mushak, skelet mushak to'qimasining tuzilishi. Yurak mustak to'qimasi tuzilishi, vazifalari va regenerasiyasi. Qon to'mirlarining taraqqiyoti, umumiy tavsifi, turlari, ular tuzilishining gemodinamikaga bog'iqligi. Arteriyalar, turlari, tuzilishi. Gemonikrosirkulyator tarmoqlar: gemokapillyarlar, arteriolalar, venularlar, arteriolo-venulyat anastomozlar, tuzilishi, faoliyati. Venalar, turlari, tuzilishi. Yurak, taraqqiyoti, umumiy tavsifi, devorlari. Endokard, to'qima tarkibi, yurak klapanlari. Miokard: tipik va atipik mushaklari, qo'zg'alish hosil qiluvchi va uni o'tkazuvchi tuzilmalari. Epikard va perikard tuzilishi.

**2-mavzu. Qon yaratuvchi va immun-himoya a'zolari va endokrin sistemasi.** Umumiy tavsifi, qon va immun sistemalari haqida tushuncha. Qon yaratilishida va immuniteda mikromuhit hujayralarining roli. Markaziy a'zolar. Suyak ko'migi va ayrisimon bez (timus), taraqqiyoti, tuzilishi va immun jarayondagi ahamiyati. Periferik a'zolar, ularning gemopoez va immunogenetegagi roli. Taloq, taraqqiyoti, tuzilishi. Limfatik tugunlar, taraqqiyoti, tuzilishi. Endokrin a'zolar, umumiy tavsifi, markaziy va periferik endokrin a'zolar. Gipotalamus yadroları, ularning hujayra tarkibi va gipofiz bilan aloqasi. Gipofiz, taraqqiyoti, tarkibiy qismlari. Epifiz, tuzilishi, gormonlari, funkcional ahamiyati. Periferik endokrin bezlar: Qalqonsimon va qalqonsimon oldi bezi, buyrak usiti bezi, taraqqiyoti, umumiy tuzilishi, funksional ahamiyati. Diffuz endokrin hujayralar va APUD sistema.

**3-mavzu. Teri va uning hosilalari.** Nafas olish sistemasi. Teri, taraqqiyoti va morfo-funktional tavsifi. Epidermis, tuzilishi, asosiy qavatlari va keratinizatsiya jarayonining kechishi. Dermaning so'rg'ichli va to'simon

qavatlari, ularning tuzilishi va ahamiyati. Teri hosilalari: teri bezlari, sochlari va timoqlar. Ularning tuzilishi, o'sishi. Nafas olish sistemasi, umumiy tavsifi va taraqqiyoti. Havo o'tkazuvchi yo'llar: burun bo'shilg'i, hiqidloq, traxeya va bronxlar. Ularning tuzilishi va vazifalari. O'pkalar. O'pka ichidagi bronxlarining o'ziga xos xususiyatlari. O'pkaning respirator bo'limi: o'pka acinuslari. Alveolalar devorining tuzilishi: pnevmostat turlari, surfaktant, aero-gematik to'siq, alveolyar makrofaglar va ularning ahamiyati.

**4-mavzu. Hazm sistemasi. Yuz-jag'va og'iz bo'shilg'i a'zolari taraqqiyoti va tuzilishi.** Yuz-jag' va og'iz bo'shilg'i a'zolarining taraqqiyoti. Jabra apparati, uning yuz-jag' va og'iz bo'shilg'i a'zolarining taraqqiyoti. Og'iz bo'shilg'i shiliq va shiliq osti pardasining o'ziga xos tuzilishi, taraqqiyot manbalari. Lab, lunj, qattiq va yunshoq tanglay, milk va til kabi a'zolarning tuzilishi va vazifalari. Trishlar: taraqqiyoti, tuzilishi va almashinuv. Yirik so'lak bezlari: qulogoldi, til osti va jag osti so'lak bezlaring morfofunktional xususiyatlari, histofiziologiyasi, endokrin funksiyasi va yosha ko'ra o'zgarishlari. Murtaklar, qizil o'ngach, tuzilishi, vazifalari.

Hazm sistemasi o'rta va orqa qismlarining histologik tuzilishi. Me'da, taraqqiyoti, umumiy tavsifi va devorining tuzilish prinzipi. Ingichka ichak, taraqqiyoti, tavsifi, devorining turli qismlarda o'ziga xos tuzilishi. Ichakda so'rilibish jarayonining histofiziologiyasi. Yo'g'on ichak, umumiy tavsifi, devorining tuzilishi, vazifalari. Chuvchalchangsimon o'simta, uning tuzilishi va ahamiyati. To'g'ri ichak. Me'da osti bezi: taraqqiyoti, umumiy tavsifi. Jigar: taraqqiyoti, umumiy tavsifi. Klassik jigar bo'lakchasing tuzilishi. Portal bo'lakcha va jigar astinus haqida tushuncha.

**5-mavzu. Siyidik ayiruv sistemasi va jinsiy sistemalar histologik tuzilishi.** Siyidik ajratish a'zolarining umumiy tavsifi. Buyraklar: taraqqiyot bosqichlari, po'stloq va mag'fir moddalar. Nefron buyrakning struktur va funkstional birligi. Buyrakda qon aylanishi. Siyidik hosil bo'lish jarayonining histofiziologiyasi. Buyrakning endokrin faoliyati. Siyidik ajratuvchi yo'llar: buyrak kosachalari va jomchalari, siyidik navi, siyidik qopi, ularning tuzilishi va ahamiyati. Jinsiy sistemalarning umumiy tavsifi, taraqqiyotining indifferent, erkak va ayol turidiagi ixtisoslashgan bosqichlari. Erakkalar jinsiy a'zolarning taraqqiyoti va umumiy tavsifi. Urug'donlar, ularning generativ va endokrin faoliyati. Prostata bezlari, taraqqiyoti, tuzilishi, vazifalari va yosha qarab o'zgarishlari. Ayollar jinsiy a'zolarining umumiy tavsifi, Tuxumdonlar va generativ va endokrin faoliyati. Ovartal stiki va uning gormonal boshqarilishi. Bachardon devorining tuzilishi. Menstrual stiki va uning fazalar. Sut bezlari, taraqqiyoti, umumiy tavsifi.

**Odam embriologiyasi asoslarini.** Odam embriologiyasi va uning tibbiyotta tutgan o'mni. Odam pushting asosiy taraqqiyot bosqichlari. Gametogenet: spermatogeneza va ovogeneza, erkak va ayol jinsiy hujayralarining tuzilishi, vazifalari. Urug'lanish, maydalanish, gastrulasiya va gisto organogeneza

bosqichlari. Provizor yoki muvaqqat azolar.

#### 6-mavzu. Nerv tizimi. Sezgi a'zolari

Nerv sistemasi, taraqqiyoti va umumiy tavsifi, tasnifi. Orqa miya va bosh miya gistolologik tuzilishi. Miyacha, kulfang modda, uning qavatlari va nevron tarkibi, miyachanining oq muddasi. Nerv sistemasining yossga ko'ra o'zgarishlari. Analizatorlarning umumiy tavsifi, birinchi (neurosensor) va ikkilamchi (epiteliosensor) hujayralar. Ko'rish a'zolarining taraqqiyoti va umumiy tavsifi. Eshituv va muvozanat a'zolari. Tashqi va o'rta qulqlar, tuzilishi, faoliyati. Ichki qulqoq: suyakli va pardali labirintlar. Eshituv gistogramiologiyasi. Labirintning vestibulyar qismi: eshituv dog'lari va eshituv qirralari.

#### III.Amaliy mashg'ulotlar mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

##### Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yxati:

###### 3-semestr

- Mavzu:Sitologiya.T'o'qimalar.Epiteliy to'qimasi. Bezi epitelii, bezlar  
Mavzu: Qon va limfa. Gemotsitopoez  
Mavzu: Biriktiruvchi to'qima.  
Mavzu: Mustak to'qimasi. Nerv to'qimasi  
Mavzu: Yurak qon tomirlar sistemasi  
Mavzu: Qon yaratuvchi va immun a'zolari  
Mavzu: Endokrin tizim a'zolari.  
Mavzu: Teri va uning hosilalari. Narfas olish tizimi  
Mavzu: Ovqat hazm qilish tizimi.  
Mavzu: Siyidik ayiruv tizimi.  
Mavzu: Erkaklar va erkaklar jinsiy tizimi.  
Mavzu: Embriologiya asoslari.  
Mavzu: Nerv tizimi. Sezgi a'zolari.
- Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:  
Modull bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari kompyuter, televizor, multimedia qurilmalari va laboratoriya jihozlari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruuhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, "Loyihali o'qitish", "Keys-stadi" va boshqa texnologiyalardan foydalaniadi. mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvoofiqdir.
- Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatildi.

#### IV. Amaliy ko'nikmalar

Gistologiya, siatologiya, embriologiya moduli davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

O'quv amaliyotni o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirishi ko'zda turilgan:

1. Mikroskop bilan ishlashni o'rganish;
2. To'qimalardan tavyortagan mikroreparatlarni yorug'lik mikroskopi ostida to'g'ri diagnostika qilish. Preparatlardagi asosiy tuzilmalarni to'g'ri tasvirlash.

#### V Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar:

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etilgan mavzular:

- 1.Plazmolemma orqali moddalar transporti mexanizmi
- 2.Hujaya apoptozi
- 3.Bezlar. Sekretor jarayonning gistogramiologiyasi. Sekrestiya tiplari
- 4.Gemositopoez jarayonining boshqarilivi.
- 5.Immun-himoya reaksiyalarning morfologik asoslari.
- 6.Fibroblastlarning jarohatning bitishi va chandiq xosil bo'lishidagi roli.
- 7.Qon va siyrak totali biriktiruvchi to'qimalarining o'zaro munosabati.
8. Hujaya va to'qimalarining moslashuv reaksiyalari. Tashqi muhimming noxush fizik va kimyoiy omillari ta'siriga moslashish jarayonlarning morfologik asoslari.
- 9.Tominarning turli a'zolardagi xususiyatlari. Tomirning yossga ko'ra o'zgarishlari.
10. Endokrin tizimi. Gipotalamo –gipofizar sistema, ularning o'zaro munosabatlari.
11. Nafas a'zolari sistemasi. Aero-gemodinamik to'siqda endoteliy hujayralarining ahamiyyat.
12. Teri va uning hosilalari. Melanotsitlar va ularning ahamiyati.
- 13.Qon yaratuvchi va immun himoya a'zolari tizimi. Immun jarayonlarning morfologik asoslari.
- 14.Hazm tizimi. Og'iz bo'shilg'i, qizilo'ngach. Og'iz bo'shilg'i va qizilo'ngach shilliq pardasi epitheliysida apoptoz, jarayonlarning kechishi.
- 15.Hazm tizimi. Me'da. Ichaklar. Ichaklardagi so'rilish jarayonlari mexanizmi.
16. Hazm tizimining endokrin va immun tizimi morfologik asoslari.
- 17.Hazm tizimi. Jigar. Gepato-biliar sistema va uning hazm jarayonidagi faoliyatidagi ahamiyati.
- 18.Ayiruv tizimi. Buyrakning endokrin tizimi, uning yurak-qon tomirlar faoliyatidagi ahamiyati.
- 19.Jinsiy tizim a'zolari. Jinsiy tizim taraqqiyoti. Qaltsis davrlar.

## VI Ta'lim natiy'jaları: Kasby kompetensiyalar

3 semestr:

### Talaba biliishi kerak:

- biologik ob'ektt sıfatida odam tanasining ko'p darajali (hujayra, to'qima, a'zo, tizim, organizm) tuzilishi tamoyili va undagi ierarxik o'zaro aloqalar;
- odam organizmida funksional tizimlar, ularning boshqarilishi odam organizmni rivojlanishining asosiy bosqichlari;
- odam embriogenezing turli davrlarida hujayra, to'qima va a'zolar tuzilishining o'ziga xosligi *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;
- xavfizlik texnikasi va biologik laboratoriyalarda ishlash qoidalari; hujayra, to'qimalarning turlari, umumiy tuzilishi va vazifalarini; regeneratsiya, differensirovka, proliferatsiya jarayonlari, to'qima va a'zolar integratsiyasi bo'yicha umumiy biologik qonuniyatlarini; yurak-qon tomurlar tizimi, qon yaratuvchi va immun himoya a'zolari, endokrin tizim a'zolining taraqqiyot manbalari, shakllanish muddatlarini, umumiy tuzilish asoslari, vazifalarini va yoshga ko'ra bo'ladigan o'zgarishlarini;
- keyinchalik patologik holatlarda yuzaga keladigan o'zgarishlarning mohiyatini o'rGANISH uchun a'zo va to'qimalarning nozik (mikroskopik) tuzilishi va vazifalarini;
- teri va uning hospitalari, nafas olish, ovqat hazm qilish, siyidik ayirish, nerv tizimi, erkak va ayollar jinsiy a'zolari hamda sezgi a'zolaring taraqqiyot manbalari, shakllanish muddatlarini, umumiy tuzilish asoslari, vazifalarini va yoshga ko'ra bo'ladigan o'zgarishlarini;
- odam embriologiyasi bosqichlari, ularning xususiyatlari, provizor a'zolar, "ona-homilla" tizimi, embriogenezing qalts davrlarini **biliishi** va ulardan foydalana olishi;
- mikroskop bilan ishlash;
- mikropreparatlarini yorug'lik mikroskopi ostida to'g'ri diagnostika qilish;
- preparatlardagi asosiy tuzilmalarni albomda to'g'ri tasvirlash;
- kasby faoliyat uchun o'quv, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar va Internet tizimidan foydalaniш;
- o'z fikr-mulohaza va xulosalarini asosli tarzda aniq bayon eta olish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

3.

*Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodli) ro'yxati:*

UK 1<sup>1</sup>. Abstrakt fikr yuritish, hodisalarini tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyat;

UK 3. Nostandard vaziyatlarda harakat qilish qobiliyat, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zinii rivojlantririsha, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik; UKK 1<sup>2</sup>. Biopsiya, operatsiya va seksiya materiallarni morfologik tahlil qilish va interpretatsiya qilish.

## VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- Interfaol o'yinlar;
- Seminar(mantiqiy fikrlash, teskor savol-javoblar;
- Guruharda ishlash;
- Taqdimotlarni kiritish;
- Individual loyixalar;
- Jamoab o'lib ishlash va himoya qilish uchun loyixalar. m'a'ruzalar;

4.

## VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:

- Joriy nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha og'zaki va testlarni muvoafaqiyati topshirishlari kerak.

5.

## IX. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar:

1. Тұхтаев К.Р. Гистология, цитология, эмбриология, Дарсник. Тошкент. 2019.
2. Zufarov K.A., Gistologiya, Darslik. Toshkent. 2005 у.
3. Афанасьев Ю.И. Гистология, эмбриология, цитология Учебник. Москва. 2021г.

*Qo'shimcha adabiyotlar:*

- Юшканицева С.И., Быков В.Л., Гистология, цитология и эмбриология Учебник Москва 2015г.
- Данилов Р.К., Боровая Т.Г. Гистология, цитология, эмбриология. Учебник. Самарканл. 2018 г.
- Кузнецов С.Л., Мушкамбаров Н.Н., Горячина В.Л. Атлас по гистологии, цитологии и эмбриологии, Учебное пособие. Москва.2011г
- Tursunov E.A. Gistologiya. Oquv qollama. I qism. Toshkent.2010 у.
- Tursunov E.A. Gistologiya. Oquv qollama. II qism. Toshkent.2011 у.
- Жунейра Л.К., Карнейро Ж.К., Гистология, Учебное пособие. Москва. 2022 г.
- Ross M.H., Palwina W., Histology.Text and Atlas. 2011 у.
- Jungueira L.C.,Carneiro J., Basic Histology. Text and Atlas. 2010 у.

*Internet saytlari:*

- <http://www.histology.narod.ru/>
- <http://rsmu.ru/8894.html>
- <http://www.dapamojnik.info/gist/>
- <http://www.morphology.dp.ua/hist.php>
- <http://histologyatlas.wisc.edu/>
- <http://www.histology-world.com/>
- <http://www.visualhistology.com/>
- <http://www.bu.edu/histology/m/>
- <http://www.ziyonet.uz>
- <http://www.edu.uz>
- <http://www.pedagog.uz>
- <http://tma.uz>
- <https://tashpmi.uz/>
- <http://www.lex.uz>

**Modul uchun ma'sollar:**

- Otekereva S.S. OTI, Anatomiya, klinik anatomiya, gistologiya, fiziologiya va biofizika kafedrasi assistenti
- Baymuratova L.K. OTI, Anatomiya, klinik anatomiya, gistologiya, fiziologiya va biofizika kafedrasi assistenti

**Taqribzilar:**  
Ichki taqrizchi:  
Mamutov Sh.I. -

OTI, "Patologiya" kafedrasi mudiri, t.f.n.

Tashqi taqrizchi:  
Reymbaeva R.S. - O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialining "Yakkakurash va tabiyiy fanlar" kafedrasi dosenti, b.f.n.

**Qoraqalpiston tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

7.

Modulning o'quv dasturi Qoraqalpiston tibbiyot instituti Kengashining  
“12 – 08 24 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i :   
Dj. Abdullayeva N.